

O'RTA ASRLARDA KIMYO VA TIB IMLARI RIVOJIDA MARKAZIY OSIYO  
ALLOMALARINING TUTGAN O'RNI

Abdurahimov Javlonbek Bahodirjon o'g'li

*Farg'onan davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasini o'qituvchisi*

THE ROLE OF CENTRAL ASIAN SCHOLARS IN THE DEVELOPMENT OF  
CHEMISTRY AND MEDICINE IN THE MIDDLE AGES

Abdurahimov Javlonbek is the son of Bahodirjon

*Teacher of the Department of World History of Fergana State University*

**Annotatsiya** Ushbu tezisda O'rta asrlarda Markaziy Osiyo allomalarining o'sha davr kimyo va tib ilmlari rivojida tutgan o'rni haqida ayrim mulohazalar berilgan. Xususan, Jabir ibn Hayyan, Abu Ali ibn Sino va Abu Bakr ar-Roziy ushbu davr kimyo va tibbiyotning asoschilarini sifatida baholanadi. Shuningdek bu davrdagi kimyo va tib ilmiga oid ayrim ayrim manbalar tahlili to'grisida ayrim mulohazalar mavjud.

**Abstract:** In this thesis, some comments are given about the role of Central Asian scholars in the development of chemistry and medicine of that time in the Middle Ages. In particular, Jabir ibn Hayyan, Abu Ali ibn Sina and Abu Bakr al-Razi are regarded as the founders of chemistry and medicine of this period. There are also some comments on the analysis of some sources related to chemistry and medicine of this period.

**Kalit so'z va iboralar:** Jabir ibn Hayyan, Abu Ali ibn Sina, Abu Bakr ar-Roziy, kimyo, tibbiyot, Ibn an-Nadim, Markaziy Osiyo, Sharq uyg'onish davri.

**Key words and phrases:** Jabir ibn Hayyan, Abu Ali ibn Sina, Abu Bakr al-Razi, chemistry, medicine, Ibn an-Nadim, Central Asia, Eastern Renaissance.

### KIRISH

O'rta asrlarda musulmon Sharqida kimyo va tibbiyot sohalarining rivoji hamda ayni yo'nalishda ijod qilgan allomalarining ilmiy faoliyati va merosiga oid masalalarni yoritishda X–XIII asrlarda yaratilgan bio-bibliografik manbalar muhim ahamiyatga egadir. Bu borada, Ibn an-Nadimning "Kitob al-Fihrist al-'ulum", Ibn al-Qiftiyning "Ixbor al-'ulamo' bi axbor al-hukamo", Ibn al-Usaybi'anining "'Uyun al-anbo' fi tabaqot al-atibbo" nomli asarlari sohadagi eng ishonchli manbalar hisoblanadi.

Tadqiqotchi-olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX – XII va XIV – XV asrlarda bamisolpo'rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatgan Sharq uyg'onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

Asosiy qism. Ibn an-Nadimning "Kitob al-Fihrist al-'ulum" ("Ilmlar bibliografiyasini oid kitobi") ilk bor nemischa izohlar bilan 1872-yilda Leypsigda professor G.Flugel [10. 725] tomonidan nashr

qilingan. Ayni asarning ikki qismdan iborat ingliz tilidagi tarjimasi 1970-yilda J.Boyard tomonidan Nyu-Yorkda [12. 1137] e'lon qilingan. Muallifning hayoti va faoliyatini bugungi kunga qadar J.Fyuk [11. 259-389] maxsus tadqiq etgan.

Ibn al-Qiftiyning “Ixbor al-‘ulamo’ bi axbor al-hukamo” (“Hakimlar xususidagi xabarlar bilan olimlarni tanishtirish kitobi”)ni asl arabcha nusxasi ilk bor 1903-yilda J.Lippert [7. 356] tomonidan e'lon qilingan bo'lib, u mashhur islomshunos A.Muyuller tarafidan nashrga tayyorlangan edi. Mazkur nashr fan tarixida muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etgan holda, unda ayrim chalkashliklarga ham yo'l qo'yilganligini qayd etish zarur. Ayni jihatlar, asarning ingliz tilidagi qo'shimcha izohlari bilan chop qilingan 2005-yildagi nashrida bartaraf etilgan. Ushbu nashr professor Ibrihim Sams-ad-Din tomonidan Bayrutda [8. 326] e'lon qilindi.

Ibn al-Usaybi'ning “‘Uyun al-anbo’ fi tabaqot al-atibbo” (“Tabibrarning toifalariga oid asosiy xabarlar”) nomli asarining nemischa tarjimasi ilk bor yuqorida ismi tilga olingan A.Muyuller tomonidan 1885-yilda Leydenda [13. 1059] e'lon qilingan edi. 2020-yilda mazkur asar E.Savaj-Smit, S.Sueyn, G.J. van Gelderlarning umumiy muharrirligi ostida Leydenda mashhur Brill nashriyoti [9. 2510] tomonidan ingliz tilida chop qilindi. Handbook of Oriental studies (Sharqshunoslik qo'llanmasida) turkumida e'lon qilingan ayni nashr asarning eng to'liq nusxasi hisoblanadi.

Quyida, sanab o'tilgan manbalarning o'rta asrlarda musulmon Sharqida kimyo va tibbiyot sohalarining rivoji hamda ayni yo'nalishda ijod qilgan allomalarning ilmiy faoliyati va merosiga oid masalalarni yoritishdagi ahamiyatini ochib berishga harakat qilinadi.

IX – XI asrlarda yurtimizda taraqqiyotning yangi davri boshlanib, davlat boshqaruvi va siyosatdagi yangiliklar ilm-fan kishilarini ezgu g'oyalar tevaragida birlashtirdi. Natijada matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyot, huquq, geografiya, geodeziya, mineralogiya singari fanlar rivojlanib, Birinchi Renessansga asos bo'ldi. Bunda, ayniqsa, o'z bag'riga daho mutafakkirlarni to'plagan oliv ilmiy dargoh – Xorazm Ma'mun akademiyasi ham muhim rol o'ynadi.

Ushbu dargohda Abu al-Hayr Ibn Hammor (942–1018), Abu Mansur Ibn Iroq (958–1036), Abu Mansur as-Saolibiy (961–1038), Abu Sahl Masihiy (970–1042), Abu Ali Ibn Miskavayh, (vafoti 1030), Abu Rayhon Beruniy (973–1048), Abu Ali ibn Sino (980–1037), Abdulhakim Muhammad ibn Abdulmalik as-Solih, Al-Xorojiy, al-Hamdamkiy, Abu Abdulloh al-Biyan al-Naysaburiy, Mahmud Hamid Ibn Xidr al-Xo'jandiy kabi ko'plab o'z zamonasining allomalari, dunyo ilm-fani rivojiga katta hissa qo'shgan yetuk olimlar faoliyat yuritdi. Bunday muhitni shakllantirishda faqat xorazmshoh emas, uning yaqin ayonlari ham ishtirok etganlar. Jumladan, Ali ibn al-Ma'munning (997–1009) vaziri Abu Husayn Ahmad as-Sahliy ma'rifatparvar, falsafiy tafakkur egasi bo'lgan.

Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari Yunoniston, Yaqin va O'rta Sharq, Markaziy Osiyo va Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o'rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko'targanlar. Ularning ilmiy faoliyati, asarlari tufayli Qadimgi Xorazm badiiy san'ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, geodeziya va geografiyasi, kartografiyasi, sug'orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirdi va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshladi.

O'rta asr musulmon Sharqi kimyo va tib ilmlari rivojida ushbu davr allomalari pleyadasining eng yorqin vakili Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy (865–925) alohida o'rin tutadi. Qayd etish lozimki, olim har ikki fanning taraqqiyotiga be'qiyos hissa qo'shgan.

Yevropa fan tarixida lotinchcha Rhazes nomi bilan mashhur bo'lgan allomaning asosiy ilmiy tadqiqotlari kimyo, tibbiyat va falsafa sohalarida kechdi. Dastlabki vaqtida asosan kimyo bilan jiddiy shug'ullangan alloma 30 yoshida Bag'dodga kelib, tib ilmini chuqur o'rganadi va keyinchalik shahardagi "Adudiy" nomli shifoxonani boshqargan. Musulmon olamida "arablar Jolinusi" degan faxrli nomga sazovor bo'lgan olim qalamiga mansub asarlarning umumiy soni 270 dan ortadi. Biroq ulardan faqat 61 tasi hozirga qadar yetib kelgan bo'lib, bu asarlarning 36 tasi tibbiyotga oiddir.

Ta'kidlash lozimki, Roziy mashhur kimyogar bo'lib, kimyo faniga oid 26 ta asar yozgan, biroq, bizgacha ularning 4 tasigina yetib kelgan. Bular orasida "Kitob al-asror" va "Kitob sirr al-asror" asarlari alohida o'rin tutadi. "Kitob al-asror"da o'rta asr Sharq kimyosi o'zining to'la ifodasini topgan. Roziyning bu asarlari uning nazariy jihatdan bir metallni ikkinchi metallga kimyoviy yo'l bilan aylantirish mumkinligiga ishonganini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar tahlili shundan dalolat bermoqdaki, Roziy asarlарining arabcha matnlarini tadqiq etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Allomaning kimyo va tibbiyotga doir asarlarni o'rganishda mashhur nemis sharqshunoslari Geydelberg universiteti professori Yuliy Ferdinand Ruska (1867–1949) hamda uning shogirdi Eliezer Paul Kraus (1904–1944)larning tadqiqotlari [5. 63] muhim ahamiyatga ega. Biroq, ularda allomaning ikki turli asarlari – "Kitob al-asror" ("Sirlar kitobi") hamda "Kitob sirr al-asror" ("Sirlar siri kitobi")ni aslida bitta asar sifatida ko'rsatiladi. U.Karimov boshlab bergen tadqiqotlar keyinchalik, professor S.Karimova tomonidan davom ettirildi. Jumladan, 1957 yilgi nashr olima tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, qo'shimchalar bilan birga nashr [I. 38] qilindi. Allomaning falsafiy qarashlari hozirgi kunda Myunxen universiteti professori Peter Adamson [3. 173 ]tomonidan tadqiq etilmoqda.

## XULOSA

Qayd etish lozimki, o'rta asrlarda rivoj topgan va ilk ilmiy asarlар yozilgan soha bu alkimyo edi. Alkimyo – kimyo fanining arabcha nomi va hozirgi kimyoning ibtidosidir. Dastlabki vaqtida Misr, Xitoy, Ossuriya, Movarounnahr va Hindistonda, shuningdek Yevropada alkimyoning asosiy masalasi metallarni oltin va kumushga aylantirishdan iborat bo'lgan. Olimlar metallarni bir-biriga qorishtirib oltin va kumush qotishmalarini hosil qilishga harakat qilishgan. VIII asr oxiri va IX asr boshlariga kelib qishloq xo'jaligi, konchilik va hunarmandchilik ishlari bir muncha rivoj topdi. Bu esa o'z navbatida tabiiy fanlarning rivojlanishiga imkon berdi. Konchilik, shisha va qog'oz tayyorlash ishlari kimyo ilmining rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Sohaning yetuk olimlari yetishib chiqdi. Ulardan biri avvalroq fikr yuritilgan Jobir ibn Hayyom bo'lib, u metallarning vujudga kelishi nazariyasini ishlab chiqqan.

So'nggi yillarda respublika miqyosida yaratilgan ayrim tadqiqotlarda Abu Bakr ar-Roziy ismi Markaziy Osiyo olimlari ro'yxatiga [I. 174 ] kiritilmoqda. Bunga asos sifatida uni Buxoroga kelgani hamda Somoniylar hukmdorini falajdan tuzatgani va olimni buxorolik Muhammad ibn Yunus ismli shogirdi bo'lganiga oid manbalarda saqlangan ma'lumotlar keltirilmoqda.

**MANBALAR VA ADABIYOTLAR/ ИСТОЧНИКИ И ЛИТЕРАТУРА**  
**/REFERENCES:**

1. Абдухалимов Б. А. «Байт ал-ҳикма» ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 293 б.
2. Каримов У. Ар-Розийнинг номаълум «Сирлар сири китоби». / Ўзбек тилига таржима С.У.Каримова. – Тошкент: Mashxur-Press, 2020. – 256 б.
3. Adamson P. Abū Bakr al-Rāzī (d. 925), The Spiritual Medicine. // The Oxford Handbook of Islamic Philosophy. / Ed. by Kh. el-Rouayheb and S.Schmidtke. – Oxford: Oxford University Press, 2017. – P. 63–82. (– 720 p.); Adamson P. Great Medieval Thinkers: al-Rāzī. – New York: Oxford University Press, 2021. – 864 s.
4. Al-Baghdādī. The History of Baghdād. – London: Oxford Press, 1985. – 1214 s.
5. Al-Bīrūnī. Fī fihrist kutub Muḥammad ibn Zakariyyā al-Rāzī. / Éditeur P.Kraus. – Paris: Au Calame, imprimerie orientaliste, et G. P. Maisonneuve, librairie orientale et américaine, 1936. – 1342 s.
6. Al-Khaṭīb al-Baghdādī. Ta’rīkh Baghdād wa Dhaīlīh wa-l-Mustafād (Die Geschichte von Baghdād). – Leiden: E.J.Brill, 1901. – 897 s.
7. Al-Qiftī Jamāl al-Dīn. Ta’rīkh al-ḥukamā’. / auf Grund der Arbeiten A.Müllers. / Ed. J.Lippert. – Leipzig: Theodor Weicher, 1903. – 356 s.
8. Al-Qifti. The Biographies and the Books of the Great Philosophers. / Ed. Ibrahim Shams-ad-Din. – Beirut: Dar al-Kotob Al-Ilmiyah, 2005. – 679 s.
9. Ibn Abī Usaybi’ah. ‘Uyūn al-anba’ fī tabaqāt al-āṭibba’. The best accounts of the classes of physicians. – 5 vol. / Ed. and trans. by E.Savage-Smith, S.Swain, G.J. van Gelder. / in Handbook of Oriental studies. – Leiden: Brill, 2020. – 4513 p.
10. Ibn an-Nadim. Kitāb al-Fihrist. / vorbereiten der Veröffentlichung G.Flügel. – Zwei bände. – Leipzig: Vergal von F.C.W.Vogel, 1872. – 1342 s.
11. Fück J.W. Ibn al-Nadīm // The Encyclopaedia of Islam. New Edition. – Vol. III. – Leiden: E.J.Brill, 1971. – 1342 p.
12. The Fihrist of al-Nadim. / Ed. and trans. by B.Dodge. – New York: Columbia University Press, 1970. – Vol. II. – 1342 s.
13. Ueber Ibn-Abī-Usseibi’ā und seine Geschichte der Aerzte. / Ed. Aug. Müller. – Leiden: E.J.Brill, 1885. – 1059 s